



TASDIQLANDI

**A. Axbuloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti rektori**

A. Ismailov

"yanvar" 2026-yil



TASDIQLANDI

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari
agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat
va xalqaro baholash ilmiy-amaliy
markazi direktori**

D. Davidova

"19" yanvar 2026-yil

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI DAVLAT UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI
DIREKTORI LAVOZIMIGA NOMZODLAR HAMDA DIREKTORLARI
UCHUN MENEJERLIK O'QUV KURSINING YAKUNIY SINOVLARI
BO'YICHA TEST, KEYS VA AMALIY TOPSHIRIQLAR
SPETSIFIKATSIYASI**

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi davlat umumiy
o'rta ta'lim muassasalari direktor lavozimiga nomzodlar hamda direktorlari
uchun menejerlik o'quv kursining yakuniy sinovlari
bo'yicha test, keys va amaliy topshiriqlar
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur menejerlik o'quv kursining yakuniy sinov topshiriqlar spetsifikatsiyasi direktor lavozimiga nomzodlar hamda amaldagi direktorlarga menejerlik o'quv kurslarining yakuniy sinovlarida qo'llaniladigan test, keys va amaliy topshiriqlarning mazmuni, qamrovi, baholanadigan konstruktleri, kognitiv darajalari, test turlari, baholash mezonlari hamda o'tkazish tartibini belgilaydi.

Spetsifikatsiyaga amaldagi namunaviy o'quv dasturiga muvofiq qo'shimcha, o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktor lavozimiga nomzodlar hamda amaldagi direktorlarning menejerlik o'quv kurslari doirasida ta'lim sohasidagi davlat siyosati, umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari, rahbarlik mas'uliyati va o'zgarishlarga moslashuvchanligi, jamoa va ota-onalar bilan samarali muloqot, boshqaruv va moliyaviy faoliyatni tashkil etish, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks baholash.

Mazkur baholash natijalari menejerlik o'quv kursining yakuniy test sinovida qabul qilinadigan qarorlar valid (asoslangan) bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 681-son qarori.

4. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 24-fevraldagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlar uchun menejerlik o'quv kurslarining yakuniy test sinovlarini tashkil etish jarayonlarini takomillashtirish to'g'risida"gi 66-son buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

III. Test va keyslarni baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Bilim va ko'nikmalar	Testlar soni
Test topshiriqlari		25 ta
1. Ta'lim menejmenti	- Boshqarish jarayoniga oid asosiy tushunchalar, tamoyillar va me'yoriy-huquqiy asoslarni bilishi; - ularni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi; - ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Maktab boshqaruvida strategiya, missiya, vizyon va strategik maqsadlarning mohiyatini bilishi; - ularni maktabni boshqarishning amaliy jarayonida qo'llay olishi; - strategik o'zgarishlar va loyiha faoliyatini samarali boshqarishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Boshqaruv psixologiyasi va rahbarlik jarayoni asosiy tushunchalarini bilishi; - rahbarning xarakter tiplari, shaxsiy fazilatlari, emotsional intellekti va xodimlar bilan samarali muloqot, rahbar nutqi, ta'sir ko'rsatish va jamoaning motivatsiyasini oshirish usullarini amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi; - situatsion liderlik, rahbarning xarakter tiplari, stressni boshqarish va qaror qabul qilish qobiliyatini tahlil qila olishi; - Korrupsiyaga qarshi qonun va me'yoriy-huquqiy asoslarni bilishi va ularni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi; - halollik va axloqiy tamoyillari va muhim prinsiplar asosida qarorlar qabul qila olishi hamda tahlil qilib mulohaza qila olishi. - Boshqaruv qarorlari tushunchasi, turlari va ularning maktab boshqaruvidagi ahamiyatini bilishi; - qarorlarni qabul qilish, ijroga joriy etish, nazorat va baholash jarayonida amaliy ko'nikmalarni qo'llay olishi; - qarorlarni samaradorligi, shaffofligi va pedagogik ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil qila olishi. - Maktab imiji tushunchasi, ichki va tashqi omillarni bilishi; - ichki va tashqi imijni mustahkamlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni qo'llay olishi; - PR va raqamli kommunikatsiya orqali maktabning obro'-nufuzini oshirishni tahlil qila olishi. - imijni shakllantirish tamoyillari va strategik yondashuvlarni amaliyotda qo'llay olishi va natijalarni baholay olishi.	4
2. O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish va rivojlantirish	- Ta'lim sifati tushunchasi va komponentlari; DTS va DTT farqi; boshqaruv tamoyillari va indikatorlarini bilishi; - DTS/DTT talablarini amalga oshirish, jarayonlarni rejalashtirish va monitoring vositalarini qo'llash; innovatsiyalarni joriy etish; jamoaviy boshqaruvni tashkil etishni amaliyotda qo'llay olishi; - ta'lim sifati indikatorlar va monitoring natijalari asosida tahlil qilish; muammolarni aniqlash va qaror qabul qilish; - ichki va tashqi baholashni integratsiyalash orqali samarali qarorlar qabul qila olishi. - O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish tamoyillari va mexanizmlarini bilishi va ularni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi;	4

	- o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Kasbga yo'naltirish tamoyillari va jarayonlarini bilishi va ularni amaliy yo'naltirish vaziyatlarida qo'llay olishi hamda - kasbga yo'naltirish samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Ta'lim sifatini baholash tushunchasi, normativ-huquqiy asoslari va xalqaro baholash tizimlarini bilishi; - ichki monitoringni tashkil etish, formativ va summativ baholash vositalarini amaliyotda qo'llay olishi; - o'quvchilarning o'zlashtirish va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilishi; - ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va strategik xulosalar chiqarish ko'nikmalari. - Bola xavfsizligi va farovonligi tushunchalari, normativ-huquqiy asoslari hamda "nol toqat" tamoyilini bilishi; - xavf-xatarlarni erta aniqlash va monitoring tizimini tashkil etish, psixologik farovonlik, bulling va uning oldini olish bo'yicha amaliy choralarni qo'llay olishi; - xodimlar etikasi, xavfsiz infratuzilma, favqulodda vaziyatlar hamda raqamli xavfsizlik va kiberbullingning oldini olish bo'yicha qarorlarni tahlil qila olishi.	
3. Rahbarning o'zini-o'zi va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishi	- Zamonaviy rahbarning shaxsiy fazilatlari va etik tamoyillarini bilishi va ularni maktab boshqaruvi va murabbiylik jarayonlarida amaliy qo'llay olishi; - ta'lim sifatini va jamoaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Shaxsiy samaradorlik, taym-menejment va strategik vaqt boshqaruvi tushunchalari hamda ularning rahbarlik faoliyatidagi ahamiyatini bilishi; - vakolatlarni uzatish (delegatsiya), vazifalarni oqilona taqsimlash, ustuvorliklarni belgilash va ish jarayonlarini optimallashtirish metodlarini boshqaruv amaliyotida qo'llay olishi; - Strategik va taktik rejalashtirish, vaqt va ish joyini qayta loyihalash hamda rahbarning o'zini rivojlantirish strategiyalarini ta'lim muassasasi faoliyati bilan uyg'unlashtirib mulohaza qila olishi; - o'zini o'zgarishlarga tayyorlash, moslashuvchan liderlik va uzluksiz rivojlanish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Pedagog xodimlarni kasbiy rivojlantirish va ish samaradorligini oshirish bo'yicha asosiy tushunchalar, tamoyillar va me'yoriy-huquqiy asoslarni bilishi va ularni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi; - pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi.	2
4. Inson resurslarini boshqarish (HR)	- Inson resurslarini boshqarish tushunchalari, strategik va ma'muriy HR farqi, HR sikli va uning maktabdagi rolini bilishi; - ishga qabul qilish, moslashuv, kasbiy rivojlanish, faoliyatni baholash, rag'batlantirish va yetakchilik vorisligini amalda tashkil etishni amaliyotda qo'llay olishi;	3

	- HR jarayonlarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash, strategiyaning ta'lim sifati va maktab barqarorligiga ta'sirini baholashi. - Mehnat Kodeksi va boshqa huquqiy hujjatlar asoslarini bilishi; xodimlar va ish beruvchilar huquqlari, majburiyatlari hamda jamoa shartnomalari mazmunini tushunishi; - mehnat shartnomalarini tuzish, ish vaqti va dam olish tartibini, shuningdek, ta'tillar turlarini amaliyotda qo'llay olishi; - mehnat shartnomasini bekor qilish tartibi va ishdan bo'shatish asoslarini tahlil qilib, ish samaradorligi va xodimlarning huquqini muvozanatlashga qaratilgan qarorlar qabul qila olishi. - Kadrlar hujjatlari va ularni yuritish tizimi, mehnat qonunchiligi va normativ-huquqiy hujjatlar talablari, xodimlar shaxsiy tarkibi, mehnat shartnomalari, ichki mehnat tartibi qoidalarini bilishi; - kadrlar hujjatlarini yuritish, ishga qabul qilish, ta'tillar jadvalini tuzish, xodimlarning shaxsiy kartochkalarini shakllantirish va yangilashni hamda raqamli vositalardan foydalangan holda hujjatlarni xavfsiz va tizimli tarzda yuritish, intizomiy ish yuritish va buyruqlarni amaliyotda tatbiq etishni qo'llay olishi; - kadrlar hujjatlarini yuritish jarayonlarini tahlil qilib, huquqiy va tashkiliy kamchiliklarni aniqlash va qarorlarni baholay olishi. - Inson resurslari faoliyatini baholashning asosiy funksional maqsadlari va turlarini bilishi; - pedagoglar faoliyatini baholash mezonlarini amaliyotda qo'llay olishi - inson resurslari faoliyatini baholash usullaridan boshqaruvda samarali foydalana olishi; - xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning KPI (Key Performance Indicators) tizimini bilish va uni boshqaruvda qo'llay olishi.	
5. Ish yuritish va hisobdorlik	- Boshqaruv jarayoniga oid asosiy tushunchalar, tamoyillar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi; - ularni maktab boshqaruvi vaziyatlarida qo'llay olishi; - ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Maktab hujjatlari, ish yuritish tartibi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash me'yoriy-huquqiy asoslarini bilishi; - hujjatlarni tayyorlash, ro'yxatga olish, nazorat qilish, tasdiqlash va arxivlash jarayonlarini amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi; - maktab hujjatlari bilan ishlash samaradorligini oshirish, ish yuritish jarayonlarini optimallashtirish va ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi.	2
6. Jamoatchilik va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik	- Maktab, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikning nazariy tamoyillari, konsepsiyasi va maqsadlarini bilishi; - ota-onalar bilan hamkorlik rejasini ishlab chiqish, kuzatuv kengashi faoliyatini tashkil etish, volontyorlik va mentorlik dasturlarini tatbiq etish, shikoyat va takliflar bilan ishlash kabi amaliyotni qo'llay olishi;	2

	- ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik jarayonini tahlil qilib, muloqot samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha xulosalar mulohaza qila olishi. - Maktabning davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik tamoyillari, subyektlari va huquqiy asoslarini bilishi; - hamkorlikni rejalashtirish, tashkil etish, monitoring va axborot almashish jarayonlarini amalda qo'llay olishi; - hamkorlik samaradorligini tahlil qilib, maktab ta'lim sifati va tarbiyaviy ishlar uchun strategik xulosalar mulohaza qila olishi. - Maktab boshqaruvida mediasavodxonlik tushunchalari, axborot manbalari, xavfsizlik va huquqiy asoslarni bilishi; - axborotni tanqidiy tahlil qilish, manbalarni baholash, media vositalarini boshqaruv va kommunikatsiya jarayonlarida amalda qo'llay olishi; - axborot siyosati va mediasavodxonlik strategiyasining samaradorligini tahlil qilib, maktab imiji va jamoatchilik ishonchi uchun qarorlar mulohaza qila olishi.	
7. Boshqaruvda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellect (AI)	- Axborot tizimlari va raqamli vositalar asoslarini bilishi; - ularni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi; - ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Sun'iy intellekt (SI) tushunchalari, turlari, texnologik imkoniyatlari va axloqiy-me'yoriy tamoyillarini bilishi; - ta'lim va maktab boshqaruvi jarayonlarida SI vositalarini amalda qo'llay olishi; - SI texnologiyalarining samaradorligi, axloqiy va xavfsizlik jihatlarini tahlil qilib, ta'lim sifatini va boshqaruv samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan qarorlarni mulohaza qila olishi.	2
8. Ta'limda liderlik va o'zgarishlarni boshqarish	- O'zgarishlar, qiyinchilik turlari va ularni boshqarish tamoyillarini bilishi; - o'zgarishlar jarayonida tashkiliy, kadrlar, resurs, axborot va psixologik qiyinchiliklarni aniqlash, ustuvorlik belgilash, reja tuzish, muloqot va motivatsiya orqali qo'llay olishi; - o'zgarishlarning samaradorligini, jamoa qarshiliklarini, stress va konfliktlarni tahlil qilib, ta'lim sifatini oshirish va barqaror boshqaruvga yo'naltirilgan qarorlarni mulohaza qila olishi. - Jamoada sog'lom muhit va ahil jamoani tashkil etishga oid asosiy tushunchalar, belgilar, funksiyalar va me'yoriy-huquqiy asoslarni bilishi; - ularni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi (jamoaviy ish, ochiq muloqot, madaniy-ma'naviy muhitni rivojlantirish, yangi xodimlarni moslashtirish); - ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Ta'lim muassasasida yuzaga keladigan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy risklar, xavf-xatarlar va ularning sabablarini bilishi; - riskni aniqlash vositalarini amaliyotda ishlatish; xavf-xatarlarni prioritetlash va oldini olish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish; harakat rejalarini amalda tatbiq etish va qo'llay olishi; - risk va xavf-xatarlarning ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligiga ta'sirini tahlil qilishi; - ketma-ketlik, sabab-oqibat zanjirini aniqlash va qarorlar	2

	samaradorligini baholay olishi.	
9. Inklyuziv ta'limni tashkil etish	- Inklyuziv ta'lim tushunchasi, tamoyillari, turli ehtiyojli o'quvchilar kategoriyalari va normativ-huquqiy asoslarini bilishi; - ularni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi; - inklyuziv ta'limning ta'lim sifati, jamoa samaradorligi va ijtimoiy ahamiyatini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Inklyuziv ta'limning joriy etish modeli, maktab tayyorligi va individual ta'lim rejalari (ITR) mexanizmini bilishi; - ularni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi (inklyuziv jamoa shakllantirish, ta'lim jarayonini moslashtirish, PTPK bilan hamkorlik, monitoring va baholashni tashkil etish); - inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish, resurslarni adolatli taqsimlash va ta'lim jarayonini har bir o'quvchi ehtiyojlariga moslashtirish bo'yicha qarorlarni tahlil qila olishi. - Gospital pedagogika tamoyillari va asosiy vazifalarini bilishi; - Sog'liqni saqlash muassasasida davolanayotgan bolalarning ta'limini uzluksiz tashkil etish, pedagogik, tibbiy va psixologik hamkorlik asosida bolalarni qo'llab-quvvatlash, kichik guruh va masofaviy ta'lim hamda individual va moslashtirilgan ta'lim shakllarini qo'llay olishi; - samaradorlik, bolalarning ruhiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishini tahlil qilib, pedagogik qarorlarni mulohaza qila olishi.	2
10. Moliyaviy munosabatlar ni boshqarish	- Ta'lim muassasasining moliyaviy faoliyati, uning tamoyillari, moliyaviy rejalashtirish, smeta va shtat jadvallari, moliyaviy risklar va xodimlarni rag'batlantirish mexanizmlarini bilishi; - smeta va mablag'larni ustuvorliklar asosida taqsimlash, xaridlar va shartnomalarni belgilangan tartibda amalga oshirish, ichki moliyaviy nazorat va auditni boshqarish, shtat va ish haqi fondini rejalashtirish, rag'batlantirish mexanizmlarini samarali qo'llay olishi; - moliyaviy qarorlar va risklarni tahlil qilib, xulosalar chiqarish, mablag'larni natijaga yo'naltirish va barqaror moliyaviy boshqaruvni ta'minlash bo'yicha vaziyatlarni mulohaza qila olishi. - Xodimlarga haq to'lash, sinflarni komplektlash va tarifikatsiya tartibi bo'yicha asosiy tushunchalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va normativlarni bilishi; - ularni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi (dars soatlari taqsimoti, elektron dastur orqali ma'lumotlarni kiritish, ustama va qo'shimcha haq to'lovlarni hisoblash, tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish); - ta'lim sifatini va moliyaviy samaradorlikni oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi. - Budjetdan tashqari mablag'lar tushunchasi, turlari, ularni jalb qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari hamda moliyaviy intizom talablari mazmunini bilishi; - budjetdan tashqari mablag'larni aniqlash, qonuniy va ixtiyoriy asosda jalb qilish, rejalashtirish, hisobga olish va maqsadli sarflash mexanizmlarini amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi; - jalb qilingan mablag'lardan foydalanish samaradorligi, shaffoflik, moliyaviy risklar va ularning ta'lim sifati hamda muassasa rivojiga ta'sirini tahlil qilib, boshqaruv qarorlarini mulohaza qila olishi. - Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim xizmati tushunchasi,	2

	turlari, xususiyatlari, sifat mezonlari va me'yoriy-huquqiy asoslarini bilishi; - ta'lim xizmatlarini rejalashtirish, tashkil etish, ota-onalar va jamoatchilik bilan muvofiqlashtirish, innovatsion va elektron xizmatlarni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo'llay olishi; - ta'lim xizmatlari sifati, ularning o'quvchi natijalari, ota-ona qoniqishi va maktab boshqaruvi samaradorligiga ta'sirini tahlil qilib, asoslangan boshqaruv qarorlarini mulohaza qila olishi.	
Keys topshiriqlari		5
11. Maktab amaliyoti (Ilg'or tajribani o'rganish)	- Barcha modullarda keltirilgan mavzulardan bilim va ko'nikmalarni ish faoliyatida, amaliy boshqaruv vaziyatlarida, xodimlar va resurslarni boshqarishda, muammoli vaziyatlarni hal qilishda qo'llay olishi; -ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni tahlil qila olishi, muammolarni bartaraf etish va rivojlantirish choralari belgilay olishi.	5
Jami		30 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
3.	Y3	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 60 ball bilan baholanadi. Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshiriqlarini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt beriladi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Yakuniy sinovlari bo'yicha amaliy topshiriqlarni baholash mezonlari.

Yakuniy sinovning amaliy topshiriqlarini topshirishda nomzodning ta'lim muassasasidagi muammoga yechim topish hamda taqdimot qilish ko'nikmalari baholanib, maksimal ball 40 ballni tashkil etadi.

Amaliy topshiriqlarni baholash sinovida har bir nomzodning taqdimotiga 10 daqiqa va savol-javoblar uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

Amaliy topshiriqlarni baholashda ishtirok etgan Komissiyaning har bir a'zosi tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi hisobidan aniqlanadi.

XI. Menejerlik o'quv kurslarining amaliy topshiriqlarini baholash mezonlari

T/r	Yuqori daraja (4 ball)	O'rta daraja (3 ball)	Quyi daraja (2 ball)	Qoniqsiz (1 ball)
1	Amaliy topshiriqning tarkibiy qismlari va mazmuniga qo'yiladigan talablarga muvofiq, yoritilgan ma'lumotlarning asoslanganligi, mantiqiy davomiyligi va izchilligi, maqsadi, vazifalari va xulosalarning mosligi	Amaliy topshiriqning tarkibiy qismlari va mazmuniga qo'yiladigan talablarga muvofiq, yoritilgan ma'lumotlar asoslangan, mantiqiy davomiyligi to'g'ri keltirilmagan	Amaliy topshiriqning mazmuni talab darajasida emas, ma'lumotlarning asoslanmagan, maqsadi va vazifalar to'g'ri qo'yilmagan	Amaliy topshiriq mavzu doirasida tayyorlangan, amaliy talab darajasida emas. Maqsad vazifalar va xulosalar mavjud emas
2	Loyihada muammoning dolzarblik darajasi yoritilganligi, qiyosiy tahlil usullaridan o'rinli foydalanganligi	Loyihada muammoning dolzarblik darajasi yoritilganligi, qiyosiy tahlil qilinganligi	Loyihada muammoning dolzarblik darajasi yoritilganligi, qiyosiy tahlil qilinmagan	Loyihada muammoning dolzarblik darajasi keltirilmagan tahlil qilinmagan
3	Mavzuga oid adabiyotlarning to'g'ri tanlanganligi va tahlil qilinganligi	Mavzuga oid adabiyotlar to'g'ri tanlanganligi va qisman tahlil qilinganligi	Mavzuga oid adabiyotlarning tanlanganligi va tahlilning sustligi	Mavzuga oid adabiyotlarning tanlanishida xato va kamchiliklarning mavjudligi
4	Aniqlangan muammolarning yechimi yuzasidan davlat tajribalari o'rganilganligi va aniq misollar keltirilganligi	Aniqlangan muammolarning yechimi yuzasidan 2 ta xorijiy davlat tajribalari o'rganilganligi va aniq misollar mavjudligi	Aniqlangan muammolarning yechimi yuzasidan 1 ta xorijiy davlat tajribasi o'rganilganligi va aniq misollar mavjudligi	Aniqlangan muammolarning yechimi yuzasidan mahalliy tajribalar o'rganilganligi va aniq misollar mavjudligi
5	Muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniqliklarning mavjudligi, shuningdek, takliflarda innovatsion g'oyalarning o'rinli va asosli ilgari surilganligi	Muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflarning mavjudligi, takliflarda g'oyalarning ilgari surilganligi	Muammolarni bartaraf etish bo'yicha ayrim takliflarning mavjudligi va qisman asoslanganligi	Muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflarning mavjudligi lekin asoslanmaganligi
6	Muammoni bartaraf etish bo'yicha zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalana olish ko'nikmasini namoyon qilganligi	Muammoni bartaraf etish bo'yicha an'anaviy boshqaruv usullaridan foydalana olish ko'nikmasini namoyon qilganligi	Muammoni bartaraf etish bo'yicha boshqaruv usullaridan foydalana olish ko'nikmasini qisman namoyon qilganligi	Muammoni bartaraf etish bo'yicha boshqaruv usullaridan foydalana olish ko'nikmasini namoyon etilmaganligi

7	Loyihani taqdimot shaklida berilgan vaqtdan umumli foydalangan holda taqdimot mazmunini to'liq tushuntirib bera olganligi	Loyihani taqdimot shaklida berilgan vaqtdan umumli foydalangan holda taqdimot mazmunini tushuntirib bera olganligi	Loyihani taqdimot shaklida berilgan vaqt ko'rsatkichida chetga chiqilgan, taqdimot mazmuni yetarli darajada tushuntirilmaganligi
8	Loyihada keltirilgan muammoni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda vazifalarning jamoa o'rtasida to'g'ri taqsimlanganligi, muddatlarning to'g'ri belgilanganligi	Loyihada keltirilgan muammoni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda vazifalarning jamoa a'zolari o'rtasida taqsimlanmaganligi, muddatlarning to'g'ri belgilanganligi	Loyihada keltirilgan muammoni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlarning mavjud emasligi
9	Loyiha (taqdimot)da axborot texnologiyalaridan umumli foydalanish darajasi, tayyorlagan taqdimotini mustaqil bajarganligi	Loyiha (taqdimot)da axborot texnologiyalaridan qisman foydalangan, tayyorlagan taqdimotini mustaqil bajarganligi	Loyiha (taqdimot)da axborot texnologiyalaridan qisman foydalangan, taqdimotni mustaqil taqdim etishda AKTda foydalanish ko'nikmasi yo'qligi
10	Kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etishi, kommunikativ kompeten-siyalarni egallaganligi, muloqot maneralarini tanlay olishi	Kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etishi, kommunikativ kompeten-siyalarni egallaganligi, muloqot maneralarini tanlay olishi	Kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etmaganligi, kommunikativ kompeten-siyalarni egallamaganligi, muloqot maneralarini mavjud emasligi

XII. Kursning yakuniy sinov natijalari maksimal 100 ballni tashkil etadi. 70 ball va undan yuqori natija ko'rsatgan tinglovchilar yakuniy sinov jarayonida muvaffaqiyatli topshirgan hisoblanadi va ularga sertifikat beriladi.

XIII. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Umarova H., Ismailov A., Xudoyberdiyev E. Ta'lim menejementi. Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Toshkent, 2025. – 256 b.

2. Ibragimov A. va b. O'quv tarbiya jarayonini boshqarish va rivojlantirish. Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Toshkent, 2025-yil, 192 b.

3. Baxromov A. va b. Rahbar va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish (CPD). Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Toshkent, 2025-yil, 112 b.

4. Xalimov M. va b. Inson resurslarini boshqarish (HR). Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Toshkent, 2025-yil, 128 b.

5. Rajabov Sh. va b. Ish yuritish va hisobdorlik. Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Toshkent, 2025-yil, 216 b.

6. Karimova E. va b. Jamoatchilik va ota-onalar bilan hamkorlik. Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Toshkent, 2025-yil, 112 b.

7. Eshqobilov S. va b. Boshqaruvda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (AI). Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Toshkent, 2025-yil, 112 b.

8. Ismailov A. va b. Ta'limda liderlik va o'zgarishlarni boshqarish. Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Toshkent, 2025-yil, 320 b.

9. Turg'unboyev va b. Inklyuziv ta'limni tashkil etish. Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Toshkent,

2025-yil, 112 bet.

10. Radjabov S. va b. Moliyaviy munosabatlarni boshqarish. davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Toshkent, 2025-yil, 160 bet.

11. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti amaldagi Menejerlik o'quv kursi modullar mavzulari (o'quv-metodik manbalar).

XIV. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 30.04.2023. LexUZ

2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 28.10.2022, O'RQ-798-son. LexUZ

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23.09.2020, O'RQ-637-son. LexUZ

4. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. 01.02.2024, O'RQ-901-son. LexUZ

5. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2008. LexUZ

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 29.04.2019, PF-5712-son. LexUZ

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 26.05.2023, PF-79-son. LexUZ

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 13.10.2020, PQ-4860-son LexUZ

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. 15.03.2017, 140-son. LexUZ

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi qarori. 30.09.2019, 823-son. LexUZ

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. 22.04.2019, 343-son. LexUZ

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. 12.10.2021, 638-son. LexUZ

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. 27.04.2021, 243-son. LexUZ

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.08.2022-yildagi 425-son qarori. LexUZ

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan hamda akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qarori. 14.02.2024, 91-son. LexUZ

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. 25.12.2023, 681-son. LexUZ

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktor lavozimiga nomzodlar hamda direktorlari uchun menejerlik o'quv kurslarining yakuniy sinovlari bo'yicha test, keys va amaliy topshiriqlar spetsifikatsiyasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tuzuvchilar guruhi:

Tuzuvchilar:

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy Akademik faoliyat bo'yicha birinchi
prorektor

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy Rahbar kadrlarning bilim darajasi va
kasbiy mahoratini baholash markazi direktori

Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-
amaliy markazi Amaliy fanlar bo'limi boshlig'i

Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-
amaliy markazi Metodik tavsiyalar va o'quv
qo'llanmalarni ishlab chiqish bo'limi boshlig'i



D.Xakimova



R.Sodiqov



G.Nazarova



Sh.Abduraimov